

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
2022- yil yanvar-sentabr**

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
11 668,6 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
96,0 %

**Asosiy kapitalga
investitsiyalar**

Markazlashgan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan:
1 645,0 mlrd. so'm

Markazlashmagan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan:
10 023,6 mlrd. so'm

Joriy davrda 11 668,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 61,1 jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 38,9 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari
hisobidan:

Respublika byudjeti:
1 047,5 mlrd. so'm

Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi:
0 mlrd. so'm

Suv ta'minoti va kanalizatsiya
tizimlarini rivojlantirish
jamg'armasi:
235,9 mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy
kreditlar:
361,6 mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalari
hisobidan:

Aholi mablag'lari :
1722,7 mlrd. so'm


Korxona mablag'lari:
2 815,3 mlrd. so'm

Tijorat banklari kreditlari
va boshqa qarz
mablag'lari:
583,0 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri va
boshqa xorijiy
investitsiya va kreditlar:
4 902,6 mlrd. so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 42,0 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 14,8 %, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 24,1 %, Respublika byudjeti 9,0 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 3,1 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 5,0 %, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 0 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 2,0 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	11 668,6	96,0	100,0
Respublika byudjeti	1 047,5	163,5	9,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	235,9	82,8	2,0
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	361,6	38,9	3,1
Korxona mablag'lari	2 815,3	107,5	24,1
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	583,0	96,2	5,0
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	4 902,6	91,1	42,0
Aholi mablag'lari	1 722,7	109,3	14,8



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Qashqadaryo viloyati	11 668,6	96,0	100,0
Qarshi sh.	2 171,0	78,9	18,6
Shahrisabz sh. <i>tumanlar</i>	186,0	143,4	1,6
G'uzor	1 991,7	66,6	17,1
Dehqonobod	222,7	91,2	1,9
Qamashi	180,8	117,6	1,5
Qarshi	648,5	124,4	5,6
Koson	447,7	146,0	3,8
Kitob	1 191,4	168,4	10,2
Mirishkor	324,4	162,5	2,8
Muborak	2 584,4	115,6	22,1
Nishon	404,3	104,0	3,5
Kasbi	330,9	163,1	2,8
Chiroqchi	352,3	98,4	3,1
Shahrisabz	388,8	55,9	3,3
Yakkabog'	243,7	93,3	2,1

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning
o'sish sur'atlari, %da**




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Kitob tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 168,4 %, Kasbi tumanida 163,1 %, Mirishkor tumanda 162,5 %, va Koson tumanida 146,0 % ni tashkil etdi.

Eng kam ko'rsatgich Shahrisabz tumaniga to'g'ri kelib bu ko'rsatgich 55,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Jamiga nisbatan % da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmi bo'yicha hududlar kesimida Muborak tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22,1 % o'zlashtirildi.

Shuningdek keyingi o'rinda Qarshi shahrida – 18,6 % ni tashkil etmoqda.

G'uzor tumanida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 17,1 % ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 6 067,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 4 534,5 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga – 1 067,0 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 4 239,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 36,3 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 4 097,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35,1 % ini tashkil etdi. Qolgan 28,6 %, yani – 3 331,5 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida Ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 2 821,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,2 % o'zlashtirilgan.

Tog' kon sanoati 1 290,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,1 % o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar		Investitsiya-lar	Kafolatlan-magan kreditlar
Qashqadaryo	5264,1	1870,5	3393,6	4902,6	1870,5	3032,1
Qarshi sh.	639,2	350,5	288,7	77,1	350,5	77,1
Shahrisabz sh. t u m a n l a r	69,1	12,5	56,6	69,1	12,5	56,6
G'uzor	1103,5	10,5	1093,0	1090,3	10,5	1090,3
Dehqonobod	13,8	9,2	4,6	13,7	9,2	4,6
Qamashi	9,7	2,5	7,2	8,1	2,5	5,6
Qarshi	296,4	52,7	243,7	291,9	52,7	239,3
Koson	188,6	2,8	185,8	154,1	2,8	151,2
Kitob	840,6	782,9	57,7	839,3	782,9	56,4
Muborak	149,5	121,0	28,5	102,8	121,0	28,5
Mirishkor	1632,7	354,6	1278,1	1290,5	354,6	1275,8
Nishon	172,9	74,2	98,7	22,5	74,2	0,2
Kasbi	128,1	97,1	31,0	119,0	97,1	31,0
Chiroqchi	6,2	-	6,2	5,5	-	5,5
Shahrisabz	10,3	-	10,3	6,6	-	6,6
Yakkabog'	3,5	-	3,5	3,5	-	3,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar




jamiga nisbatan, % da

Joriy davrda ham asosiy kapitalning katta qismi Ishlab chiqarish sanoati o'zlashtirilib, 2 821,4 mlrd. so'mni yoki jami asosiy kapitalning 24,2 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni Tog' kon sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 1 290,0 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 11,1 % o'zlashtirildi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha – 1 078,5 mlrd. so'm, Turar-joy qurilishi faoliyati bo'yicha – 886,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilgan.

Foydalanishga topshirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 774,9 ming kv.m bo'lgan 4424 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 306,5 ming kv.m bo'lib, 1618 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Chiroqchi tumanida ishga tushirilgan 101,6 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 13,1 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Kitob tumani egallagan bo'lib, jami ishga tushirilgan maydon 100,7 ming kv.m bo'lib viloyat bo'yicha jami umumiy maydonning 13,0 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.



**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(75) 221-32-47